

MAKTABGACHA YOSHIDAGI BOLALAR REFLEKSIV KO'NIKALARINI RIVOJLANTIRISHDA SYUJETLI-RO'LLI O'YINLARNING IMKONIYATLARI

Raxmonova Iroda Samijonovna,

University of Business and Science

Maktabgacha /Boshlang'ich ta'lim va sport faoliyati kafedrası o'qituvchisi

G-mail: irodaraxmonova06@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda refleksiv ko'nikmalarni shakllantirishda syujetli-ro'lli o'yinlarning o'rni va ahamiyati tadqiq etiladi. Tadqiqot jarayonida turli yosh guruhlarida o'tkazilgan kuzatishlar, pedagogik tajriba-sinovlar hamda psixologik-diagnostik metodlar qo'llanildi. Syujetli-ro'lli o'yinlar bolalarning o'z xatti-harakatlarini tahlil qilish, boshqalar nuqtai nazarini tushunish, o'zini baholash, hamkorlikda faoliyat yuritish kabi refleksiv qobiliyatlarni shakllantirishda muhim omil ekanligi isbotlandi.

Kalit so'zlar:Refleksiya, refleksiv ko'nikma, syujetli-ro'lli o'yin, maktabgacha ta'lim, ijtimoiy-emotsional rivojlanish, muloqot, o'yin faoliyati, yosh xususiyatlari.

Аннотация. В данной статье исследуются роль и значение сюжетно-ролевых игр в формировании рефлексивных навыков у детей дошкольного возраста. В ходе исследования были использованы наблюдения, проведённые в различных возрастных группах, педагогические экспериментальные испытания, а также психолого-диагностические методы. Доказано, что сюжетно-ролевые игры являются важным фактором формирования рефлексивных способностей детей, таких как анализ собственного поведения, понимание точки зрения других людей, самооценка и умение сотрудничать в совместной деятельности.

Ключевые слова: рефлексия, рефлексивные навыки, сюжетно-ролевая игра, дошкольное образование, социально-эмоциональное развитие, общение, игровая деятельность, возрастные особенности.

Abstract. This article examines the role and significance of role-playing games in the development of reflective skills among preschool children. The research employed observations conducted in different age groups, pedagogical experimental studies, and psychological diagnostic methods. The findings demonstrate that role-playing games are an important factor in fostering children's reflective abilities, including the analysis of their own behavior, understanding others' perspectives, self-assessment, and the ability to cooperate in joint activities.

Keywords: reflection, reflective skills, role-playing game, preschool education, social-emotional development, communication, play activity, age characteristics.

Kirish. Maktabgacha bolalik –shahs rivojlanishining qisqa, ammo muhim davri hisoblanadi. Bu yillar davomida bola atrofidagi hayot haqida dastlabki bilimlarni egallaydi. O'yin insonning butun umri davomida unga hamroh bo'lib ,sexr-jodu ,taqliddiy hatti harakat, sport san'at va ayniqsa ,uning ijrochilik shakllari bilan tutashib ketadi .O'yin jismoniy mashq ayniqsa va kelajakdagi hayotiy vaziyatlarga psixologik tayyorgarlik vositasidir. Syujetli ro'lli o'yin (ijtimoiy-xayoliy o'yin) yuqori sifatli maktabgacha o'quv dasturlarining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi,chunki u bolalarga yuqori darajadagi ijodkorlik,muammolarni hal qilish aks ettirish ,tildan foydalanish va ijtimoiy munosabatlarda ishtirok etish uchun ajoyib imkoniyat yaratadi[1]. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy tasavvur qilingan o'yin rivojlanishning barcha sohalariga ijobiy tasir ko'rsatishi mumkin.

Syujetli ro'lli o'yinlarda bolalar o'zlari bilgan va boshdan his qilgan kechinmalarga tayanadi hamda ushbu tajriba asosida qandaydir yangilik yaratishadi. Syujetli ro'lli o'yin bu juda kichik yoshdagi bolalar murakkab xulq atvor hamda fuqorolik va madaniy kompetensiyalarni egallashga qanchalik tayyor ekanliklarini ko'rsatuvchi ko'p qirrali jarayon hisoblanadi.

Maktabgacha ta'lim davri bolalarning shaxs sifatida shakllanishi va kognitiv jarayonlarining rivojlanishida hal qiluvchi bosqichdir. Ayniqsa, refleksiv ko'nikmalar - o'z xatti-harakatlarini anglash, baholash, xatolarni tahlil qilish, boshqalarning his-tuyg'ularini tushunish - keyingi bosqichlarda muvaffaqiyatli ta'lim olishi va ijtimoiy moslashuvi [2] uchun zarurdir.

Syujetli-ro'lli o'yinlar bolaga ijtimoiy rollarni sinab ko'rish, o'zini turli vaziyatlarda tasavvur qilish, muammolarni yechish va fikrlashni rivojlantirish imkonini beradi. Shuning uchun ushbu o'yinlarning refleksiv rivojlanishdagi o'rni zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda dolzarb mavzu bo'lib kelmoqda.

Syujetli -ro'lli o'yinlarda bolalar o'zlari bilgan va boshdan his qilgan kechinmalarga tayanadi hamda ushbu tajriba asosida qandaydir yangilik yaratishadi.

Syujetli-ro'lli o'yin maktabgacha yoshdagi bolalarning asosiy oyin turlaridir. Syujetli-rolli o'yin o'z xususiyatiga ko'ra aks ettiruvchifaoliyatdir. Tevarak-atrofdagi kattalar va tengdoshlarining hayoti va faoliyati bu o'yin mazmuniga manba bo'lib xizmat qiladi. Bolalarning tevarak-atrofdagi hayotdan, tengdoshlari, kattalar faoliyatidan olgan taassurotlari ijodiy o'yinda qaytaishlanadi, to'ldiriladi, sifat jihatidan o'zgartiriladi. Bolalarning bunday o'yinlari tevarak-atrofdagi borliqni bilishning amaliyshaklidir. Syujetli-rolli o'yin o'z xususiyatiga ko'ra aks ettiruvchifaoliyatdir [3]. Tevarak-atrofdagi kattalar va tengdoshlarining hayoti va faoliyati bu o'yin mazmuniga manba bo'lib xizmat qiladi. Bolalarning tevarak-atrofdagi hayotdan, tengdoshlari, kattalar faoliyatidan olgan taassurotlari ijodiy o'yinda qaytaishlanadi, to'ldiriladi, sifat jihatidan o'zgartiriladi. Bolalarning bunday o'yinlari tevarak-atrofdagi borliqni bilishning amaliyshaklidir. Bolalar o'yinimg o'ziga xos tomoni unda tasvirlovchi vaziyatlarning mavjudligidir. Tasvirlovchi vaziyat bolalarga o'yin jarayonida yuklangan rol va o'yin syujetidan tashkilotpadi va har xil buyumlardan foydalanishni ham o'z ichiga oladi. O'yinning syujeti - bir-biriga hayotiy aloqador bo'lgan qatorvoqea-hodisalar yig'indisidir. Rol syujetli-rolli o'yinning asosiy zanjiri hisoblanadi. O'yin bolada qanoatlanish, xursandchilik hissini paydo qiladi, shuning uchun bolani qiziqtirib, unda yaxshi kayfiyat uyg'otadi, bola organizmidagi hayotiy faoliyatni yaxshilaydi. Bola o'ynayotganda har xil harakatlar qiladi: yuguradi, sakraydi, tor joydan, ingichka taxta ustidan o'tadi, engashadi, yuqoriga tirmashib chiqadi va hokazo. Bu harakatlarning hammasini bola bemalol, o'z xohishi bilan bajaradi, natijada bolaning muskullari pishiydi, u harakatni yengilroq, chaqqonroq bajaradigan bo'lib qoladi. Bolaning aqliy tomondan rivojlanishi uchun ham o'yin katta ahamiyatga ega. O'yin natijasida bolaning bilimi kengayib boradi. Roll! o'yinlar bola kuzatuvchanligini,

qiziquvchanligini, bilish doirasini rivojlantiradi, boyitadi. O'yinda bola o'z oldiga maqsad qo'yadi, bu boladan aql, idrok ishlatishni talab qiladi, topag'onlikka o'rgatadi. O'yin jarayonida juda ko'p gaplashishga, tortishishga, bahslashishga, aytib berishga to'g'ri keladi. Bolalar o'zi yasayotgannarsalarini yaxshiroq yasash, qurish uchun juda ko'p o'ylab, fikrlashishlariga to'g'ri[4] keladi. Bular hammasi bola tafakkuriva xayolining rivojlanishida muhim ahamiyatga egadir. Bola o'z o'yinida borliqni aks ettirib, olgan rolining mazmuni bilan bog'liq bo'lgan u yoki bu hissiyotni boshdan kechiradi. Masalan, Dilnoza ona-bola o'yinida ona rolinio'ynayotib, bolalarini ovqatlantiradi, kiyintiradi, ular bilanyaxshi munosabatda bo'lib erkalaydi, ular bilan gaplashadi, kitoblar o'qib beradi. Bu o'yin bolada muloyimlik, g'amxo'rlik, e'tiborlilik kabi yaxshi hislarni uyg'otadi. Rolli-syujetli o'yinlarning o'ziga xos xususiyati. Rolli o'yinlarning boshqa o'yinlarga nisbatan o'ziga xos xususiyatga egaligi ularida syujet, rol va xayol qilingan vaziyatning mavjud bo'lishidir.

Syujetli-rolli o'yinlar va sahnalashtirish markazlari bolalar iqtidorini namoyon bo'lishi, o'z mahoratini ko'rsatishi uchun juda [5] qulay muhitdir. Bu markazni - bolaning "Men"ini shakllantiruvchi markaz deb ham atash mumkin. Markazdagi barcha jihozlar bolalar hayotida uchraydigan jihozlar bo'lib, o'yin jarayonida bola ulardan foydalanishni o'rganadi, kasblar bilan yaqindan tanishish imkoniga ega bo'ladi. O'yinda oila a'zolarining o'zaro munosabatlari aks etadi va ular orqali ahloqiy tarbiya olish (tarbiyachi uchun esa oiladagi muhitni o'rganish) imkoni yaratiladi. Syujetli-rolli o'yinlar mazmunining o'ziga xosligi uning eng muhim xususiyatlaridan[6] xisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda refleksiv ko'nikmalarni shakllantirish pedagogika, psixologiya va ta'lim metodologiyasi sohalarida muhim masalalardan biridir. Ushbu mavzu bo'yicha tadqiqotlar, ko'plab olimlar tomonidan amalga oshirilgan bo'lib, ularning natijalari bolalarning o'zini o'zi anglash, ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirish va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini ta'minlashda refleksivlikning ahamiyatini ta'kidlaydi. Pedagogik va psixologik tadqiqotlarda o'yin faoliyatining rivojlantiruvchi ahamiyati keng o'rganilgan.

S. S. Tomilov o'z tadqiqotlarida, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning refleksiv ko'nikmalarini rivojlantirish uchun innovatsion ta'lim metodlarini joriy etish zarurligini ta'kidlagan[4]. U, shuningdek, bolalar bilan ishlashda interaktiv usullar va o'yinlar orqali refleksiv jarayonlarni rag'batlantirish imkoniyatlarini o'rgangan.

L.S. Vygotskiy o'yin jarayonida bola "yaqin rivojlanish zonasi"ga kirib, murakkab ijtimoiy rollarni o'zlashtirishi va yuqori darajadagi fikrlash shakllarini egallashini ta'kidlaydi. D.B. Elkonin syujetli-rolli o'yinlarning bolada ijtimoiy tajribani shakllantirish, o'zini boshqalar bilan taqqoslash va nazorat qilishga xizmat qilishi haqida fikr bildirgan.

Zamonaviy tadqiqotchilar (A. Roopnarine, J. Piaget, K. Groos va boshqalar) ham o'yin jarayonining refleksiya, empatiya, kommunikativ ko'nikmalar rivojiga ta'sirini ilmiy

asoslab berganlar. O‘zbek pedagoglari — A. Avloniy, O. Usmonov, R. Mavlonova — o‘yin faoliyatini ta’lim jarayonining ajralmas qismi sifatida baholaydi.

Adabiyotlarni tahlil etish natijasida aniqlanishicha, syujetli-ro‘lli o‘yinlar bolalarda quyidagi jihatlarni rivojlantiradi:

- o‘z xatti-harakatlariga tanqidiy nazar,
- muloqot va hamkorlik,
- his-tuyg‘ularni boshqarish,
- o‘z rolini va boshqalar rolini tushunish,
- muammoli vaziyatlardan chiqish strategiyalarini shakllantirish.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotning maqsadi maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda refleksiv ko‘nikmalarni shakllantirish jarayonini o‘rganish va uning metodik asoslarini ishlab chiqishdir. Tadqiqot quyidagi metodologik yondashuvlarga tayangan holda amalga oshiriladi:

Tadqiqot sifat va miqdoriy usullarni o‘z ichiga olgan aralash usul asosida olib boriladi. Bu yondashuv, bolalarning refleksiv ko‘nikmalarini o‘rganish va baholashda kengroq va chuqur ma'lumotlar to‘plash imkoniyatini taqdim etadi. Kvalitativ usullar orqali fokus-guruh tahlillari va intervyular, miqdoriy usullar orqali esa anketalar va psixologik testlar o‘tkaziladi. Ishtirokchilar maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar (5-7 yosh) qatnashadi. Bunda, 3 ta maktabgacha ta'lim muassasasidan 75 nafar bola tanlab olinadi. Ishtirokchi bolalar tasodifiy tanlov usuli yordamida aniqlanadi, hamda ularning ota-onalari va pedagoglari tomonidan ma'lum shartlar asosida ro‘yxatdan o‘tkaziladi.

Ma'lumot to‘plash usullariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- Kuzatish: bolalarning o‘yinga asoslangan faoliyatlarida reflektiv faoliyatlarini o‘rganish maqsadida kuzatuvlar o‘tkaziladi.

- Anketalar va testlar: ota-onalari va murabbiylar uchun refleksiv ko‘nikmalarning muvaffaqiyatini baholashga qaratilgan maxsus anketalar ishlab chiqiladi.

- Tajriba guruh tahlillari: o‘zaro munosabatlar va muammolarni hal qilish jarayonida bolalarni faol ishtirok ettiruvchi fokus-guruhlar tashkil etiladi. Ushbu usul, bolalarning fikrlash jarayonlarini va refleksiv ko‘nikmalarini chuqur o‘rganishga yordam beradi.

Kvalitativ ma'lumotlar mazmunli tahlil usuli yordamida, bolalarning fikrlarini va hissiyotlarini sinchiklab o‘rganish orqali to‘g‘ri talqin etiladi. Miqdoriy ma'lumotlar uchun esa statistik usullar, jumladan, dispersiya, korrelyatsiya va t-testlar kabi metodlar qo‘llaniladi.

Tadqiqot jarayonida refleksiv pedagogika, o‘yin metodologiyasi va yosh psixologiyasi kabi nazariy yondashuvlardan foydalaniladi. Ushbu yondashuvlar yordamida bolalarning o‘zaro munosabatlarini rivojlantirish va o‘z fikrlarini ifoda etish ko‘nikmalarini shakllantirish uchun qulay muhit yaratish maqsad qilinadi. Tadqiqotda ishtirok etuvchi bolalar va ularning ota-onalaridan ruxsatnoma olish jarayonlariga qat’iy rioya qilinadi.

Shuningdek, ishtirokchilarning maxfiyligi va shaxsiy ma'lumotlarining himoyasi ta'minlanadi.

Ushbu metodologik yondashuvlar, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda reflektiv ko'nikmalarni shakllantirish jarayonini chuqur o'rganishga yordam beradi va amaliy tavsiyalar va metodlarni ishlab chiqishda asosiy platforma bo'ladi. Tadqiqot natijalari nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy tajribani ham yanada boyitishga qaratilgan.

Tahlillar va natijalar. Ushbu tadqiqotda maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda reflektiv ko'nikmalarni shakllantirish jarayonining tahlili bir necha metodlar yordamida amalga oshirildi. Olingan ma'lumotlar tadqiqotning maqsadi va dolzarbligini hisobga olgan holda chuqur tahlil qilindi.

Kuzatuvlar davomida bolalarning o'yin faoliyatlaridagi reflektiv ko'nikmalari sezilarli darajada namoyon bo'ldi. Bolalar o'zaro muloqotda faol ishtirok etdi, o'z hissiyotlarini ifodalashda va boshqa bolalar fikrini qabul qilishda ijobiy natijalarga erishdilar. Bu jarayonda ularning muammoni hal qilishga oid fikrlari va tashabbuslari yaxshi rivojlangan deb hisoblanadi. Kuzatuv natijalari, bolalar o'rtasidagi ijtimoiy lihzaning kuchayishini va reflektiv muhokamalarning kengayishini ko'rsatdi.

Ota-onalar va murabbiylardan olingan anketalar natijalari tubdan tahlil qilindi. Anketa natijalari shuni ko'rsatdi-ki, ishtirokchilar o'z bolalarining reflektiv ko'nikmalari mavjudligini aytdilar, ammo ko'pchilik onalar va otalar bolalarning ijtimoiy ko'nikmalari va o'z fikrlarini ifodalashda yanada ko'proq yordam bera olishlari kerakligini ta'kidladilar. Test natijalari, bolalarning o'z-o'zini anglash darajasining oshishi va o'z ehtiyojlariga e'tibor berilishi bilan bog'liq bo'lgan ijobiy o'zgarishlarni ko'rsatdi.

Tajriba guruhida o'tkazilgan muhokamalar bolalarning reflektiv ko'nikmalarini rivojlantiruvchi muammolarni hal qilish jarayonida tajriba almashishlarini aks ettirdi. Ishtirokchilar fikr almashganida, o'zaro tushunish va hamkorlikda ishlash ko'nikmalari oshgani ko'rindi. Bu, bolalarning o'zlarini ifodalashda va yangi fikrlarni qabul qilishda bir-birlariga yordam berishlariga sabab bo'ldi. Tajriba guruh natijalari, bolalar o'rtasida muloqot va muvofiqlikni rivojlantirishda sinfdagi kimyoviy va shaxsiy muhit o'rtasidagi muvozanatni yanada kuchaytirdi.

Olingan ma'lumotlar umumiy ravishda bolalarda reflektiv ko'nikmalarni shakllantirish jarayonining samaradorligini ko'rsatdi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, ta'lim jarayonida joriy etilgan faol usullar, ayniqsa o'yinlar va interaktiv muhokamalar orqali bolalarning o'zlarini anglash, o'z fikrlarini ifodalash va boshqalar bilan munosabatlar o'rnatish qobiliyatlari yaxshi rivojlanadi.

Xulosa. Bolalarda reflektiv ko'nikmalarni shakllantirish jarayoni samarali o'tdi, bu ularning umumiy shaxsiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Buning natijasida, bolalar o'zaro munosabatlarda yanada faolroq va mustaqilroq bo'lib qolishdi. Joriy etilgan faol va interaktiv yondashuvlar bolalarning o'z-o'zini anglash va hissiyotlarini ifodalash ko'nikmalarini rivojlantirish jarayonida muhim rol o'ynadi. O'yin asosidagi metodlar,

bolalar uchun murojaat etish qulay muhitni yaratdi. Tadqiqot davomida bolalarning ijtimoiy ko'nikmalari, shu jumladan, o'z fikrlarini etkazish va boshqalarni tinglash qobiliyatlari oshdi, bu esa ularning kelajakdagi ijtimoiy moslashishida muhim omil bo'ladi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, maktabgacha ta'lim jarayonida syujetli-ro'lli o'yinlardan samarali foydalanish bolalarning refleksiv ko'nikmalarini rivojlantirishning eng muhim vositasidir. Turli yosh guruhlarida o'yinlar o'ziga xos metodik yondashuvni talab qiladi, lekin har qanday holda ular ijtimoiy-emotsional rivojlanishni sezilarli darajada qo'llab-quvvatlaydi.

1. Tadqiqot metodologiyasini kengaytirish: Kelgusida tadqiqotda inkluziv ta'lim muassasalari va turli ijtimoiy qatlamlardan keluvchi bolalarni qamrab oluvchi strategiyalarni qo'llash tavsiya etiladi. Buning natijasida, atraktiv muhit yaratish imkoniyatlari kengayadi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida syujetli-ro'lli o'yinlar bo'yicha muntazam metodik mashg'ulotlar tashkil etish.

2. Yana ko'proq interaktiv metodlar: Maktabgacha ta'lim muassasalarida o'quv jarayoniga interaktiv o'yinlar va amaliy mashg'ulotlarni joriy etish taklif etiladi. Bu, bolalarning o'z fikrlarini qurish va ularni boshqalar bilan baham ko'rish ko'nikmalarini kuchaytiradi.

Ota-onalar va pedagoglar uchun seminarlar: Ota-onalar va pedagoglarga bolalarda refleksiv ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan seminarlar va treninglar o'tkazilishi tavsiya etiladi. Bu, ularning bolalariga nisbatan yondashuvlarini yaxshilashga yordam beradi. Har bir guruhning yosh xususiyatlariga mos syujetli o'yinlar to'plamini ishlab chiqish.

3. Maktabgacha ta'lim dasturlarini yangilash: Ta'lim dasturlarini talablarga mos ravishda yangilash zarur, bu esa bolalarning refleksiv ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi zamonaviy metodlardan foydalangan holda amalga oshirilishi lozim.

4. Oilada ham syujetli o'yinlar tashkil etish bo'yicha ota-onalarga tavsiyalar berish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'yin orqali ta'lim olish . Metodik qo'llanma.Toshkent – 2020
2. Maktabgacha pedagogika. Fotima Qodirova, Shoista Toshpo'latova,Nargiza Qayumova ,Malohat A'zamova Toshkent-2019
3. G.N.Aminova „Maktabgacha yoshdagi bolaning rivojlanishida syujetli-ro'lli va sahnalashtirilgan o'yinlarning ahamiyati” maqolasidan
4. Вульф В.З. Педагогика рефлексии: взгляд на профессиональную подготовку учителя / В.З.Вульф, В.Н.Харькин. – Москва: Магистр, 1995. - 111 с.
5. Агапова И., Давыдова М. Литературные игры для детей. – М.: “Лада”, 2011. – 165 с
6. Mamataliyeva Mahbuba Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishda ertak terapiyasidan foydalanish <https://maktabgacha-va-maktab-talimi-jurnal.uz/index.php/jurnal/article/view/2625>
7. Mamataliyeva Mahbuba Abduvoris qizi Ertak terapiyaning tarbiyalanuvchilar estetikmadaniyatini shakllantiruvchi pedagogik vositasifatidagi o'rni va ta'sir mexanizmlari <https://intconf.online/index.php/icarhse/article/view/641>

8. Mamataliyeva Mahbuba Abduvoris qizi . Badiiy adabiyot vositasi orqali maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlari <https://web-journal.ru/journal/article/view/699>
9. Raxmonova Iroda Samijonovna, . (2025). Developing Reflexive Skills in Preschool Children in A Developmental Play Environment. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 6(01), 18–22. <https://doi.org/10.37547/pedagogics-crjp-06-01-05>

